

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

TURAJONOV QODIRJON MURODJON O‘G‘LI

**ROTORLI SISTEMALAR DINAMIKASINI QO‘ZG‘ALUVCHAN
MASSALAR YORDAMIDA BALANSIRLASH USULINI
TAKOMILLASHTIRISH**

01.02.01 – Nazariy mexanika,
01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Fizika - matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Physical-mathematical Sciences**

Turajonov Qodirjon Murodjon o'g'li Rotorli sistemalar dinamikasini qo'zg'aluvchan massalar yordamida balansirlash usulini takomillashtirish.....	3
Туражонов Кодиржон Муроджон угли Усовершенствование метода балансировки роторных систем с помощью подвижных масс	25
Turajonov Kodirjon Murodjon ugli Improving the method of balancing rotor systems using movable masses	49
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works	52

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

TURAJONOV QODIRJON MURODJON O‘G‘LI

**ROTORLI SISTEMALAR DINAMIKASINI QO‘ZG‘ALUVCHAN
MASSALAR YORDAMIDA BALANSIRLASH USULINI
TAKOMILLASHTIRISH**

01.02.01 – Nazariy mexanika,
01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/FM916 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.instmech.academy.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Sidikov Mansur Nasirovich

fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Mirsaidov Mirziyod Mirsaidovich

O'ZR FA akademigi, texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Korshunova Natalya Aleksandrovna

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xusanov Baxtiyar Ergashbayevich

fizika-matematika fanlari doktori, k.i.x.

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.02/30.12.2019. T/FM.61.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024 yil « 16 » oktabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent, Do'rmon yo'li ko'chasi, 40, 322 - majlislar zali. Tel.: (99871) 262-71-52; Faks: (99871) 262-71-32, e-mail: instmech@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (22 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent, Do'rmon yo'li ko'chasi, 40-uy. Tel.: (99871) 262-71-52).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 30 » sentabr kuni tarqatildi.

(2024 yil « 25 » sentabr dagi 22-raqamli reester bayonnomasi).



R.A. Abirov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

M.K. Usarov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

A.A. Rizayev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy texnika va texnologiyalarning turli sohalarida, jumladan transportda, gidroenergetikada va aviatsiyadagi dvigatellarning asosini rotorli mexanizmlar tashkil qiladi. Bunday rotorli qurilmalarda rotorni kritik burchak tezlikdan yuqori tezliklarda harakatlanishi natijasida hosil bo'luvchi dinamik kuchlarni, rotor aylanish o'qining tebranma harakatlarini kamaytiruvchi avtobalansirlovchi uskunalarni matematik modellashtirish natijasida rotorda paydo bo'ladigan tebranishlarni so'ndirish, mukammal ishlashiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rishga, uzoq muddat ishonchli ishlashini ta'minlashga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda sanoat va texnikadagi katta tezliklarda ishlovchi dvigatel rotorlarini loyihalashda murakkab balansirlovchi mexanik sistemalarni matematik modellarini yaratish va tebranishlarini so'ndirishda yangi tipdagi avtobalansirlovchi uskunalarni qo'llash muammolarini hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, jumladan katta tezliklarda harakatlanuvchi statik balansirlanmagan rotorli sistemalarda aylanish o'qi markaziy bosh inersiya o'qidan iborat bo'lmasligi natijasida dinamik kuchlar ortib ketmasligi, mustahkamligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda rotorli sistemalarni qo'zg'aluvchan massalar yordamida balansirlash, murakkab rotorli mexanik sistemalarni matematik modellarini ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan katta tezliklarda harakatlanuvchi statik balansirlanmagan rotorli sistemalarni avtobalansirlovchi uskuna harakatini matematik modellashtirish va dinamikasini baholash bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, rotorni yasash va ishlash jarayonida rotorda hosil bo'luvchi disbalansni, ya'ni aylanish o'qi markaziy bosh inersiya o'qidan og'ishini, dinamik va kinematik parametrlarni, rotor massa markazinig tebranish amplitudasini keskin oshib ketmasligini avtobalansirlovchi uskunada joylashgan harakatlanuvchi massalar yordamida balansirlashni konstruktiv parametrlarga bog'liq holda aniqlash usuli dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda sanoat va texnikaning ko'plab sohalari gidroelektrostansiyalar, suv yetkazib berish hamda qayta ishlash inshootlarini loyihalashda murakkab mexanizmlar va qurilmalarni matematik modellashtirish, dinamikasini baholashga qaratilgan ko'plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...Toshkent shahri aholisi va iqtisodiyot tarmoqlarini toza ichimlik suv bilan ta'minlash, sohaga ilg'or xorijiy tajriba va xalqaro standartlarga muvofiq texnologiyalarni tatbiq qilish..."¹ vazifalari belgilangan. Mazkur vazifani amalga oshirish, jumladan tarmoqlarda joylashgan nasos agregatlari, kompressorlar va boshqa turdagi katta tezliklarda ishlovchi dvigatellarning aylanma harakat qiluvchi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

rotorlarini balansirlash, uzoq muddatli samarali ishlashini ta'minlashni matematik modellashtirish, loyihalash, dinamikasini baholashning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" PF-60-son farmoni va 2021 yil 12 dekabr "Gidroenergetikani yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"² gi PQ-44-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Rotorli sistemalar dinamikasiga tegishli ilmiy izlanishlar K.Laval, U.Renkin, G.Djeffkott, S.Dunkerleya, A.N.Krilov, A.B.Stodol, YE.L.Nikola, P.L.Kapitsa A.S.Kelzon, Y.P.Simanskiy, L.M.Malinin, F.M.Dimentberg, K.T.Shatalov, A.A.Gusarov T.Yamamoto, Y.Ishida, A.G.Genta, B.Ryzhik, L.Sperling, H.Duckstein, K.Ollson, A.N.Gorbenko, A.S.Kovachev, E.Sirln, Sh.Yoshida, N. Teruyuki, V.V.Goncharov, C.K. Sung, T.C.Chan, C.P.Chao, C.H.Lu Hedaya, R.Sharp, V.P.Nesterenko, V.G.Bikov, G.Filimonikhin, N.N.Zaytsev, D.N.Zaytsev, A.A.Makarov, S.Guntis, M.Mareks, S.Valentina, G.Alexander, L.Sperling, C.Linz, A.Fidlin, O.Drozdetskayalar tomonidan amalga oshirilgan.

Respublikamizda ushbu yo'nalishda M.N.Sidikov, M.M.Mirsaidov, T.M.Mavlanov, N.A.Korshunova, K.S.Sultanov, B.M.Mardonov, A.A.Rizaev, K.A.Karimov, Q.Xusanov, O.Dusmatov, I.I.Safarov, G'.A.Baxodirov va boshqa bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va ijobiy natijalarga erishgan.

Shu bilan birga, katta tezlikda harakatlanuvchi statik balansirlanmagan rotorga nisbatan aylanish o'qiga ega bo'lgan avtobalansirlovchi uskunali (ABU) sistemani joylashtirish orqali rotorda hosil bo'luvchi dinamik va kinematik parametrlarni optimallashtirish muammolari yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ilmiy izlanish "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining FZ-20200929327 (2021-2026) ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi rotorli sistemalar dinamikasini qo'zg'aluvchan massalar yordamida balansirlash usulini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: aylanish o'qiga kichik burchak og'ishi bilan joylashtirilgan statik balansirlanmagan

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 12 dekabr PQ-44-sonli "Gidroenergetikani yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori

ko'p yo'lakli ABULi rotorning harakat differensial tenglamalarini valning turli parametrlarini hisobga olgan holda matematik modelini ishlab chiqish;

aylanish o'qiga kichik burchak og'ishi bilan joylashtirilgan statik balansirlanmagan ko'p yo'lakli ABULi rotorning statsionar harakatlarini hisoblashlar natijasida analitik natijalar olish;

katta burchak tezlikda harakatlanuvchi statik balansirlanmagan rotorga nisbatan aylanish o'qiga ega bo'lgan ABULi sistemani statsionar harakatlarini algebraik hisoblashlar natijasida analitik va Maple dasturlash paketiga tegishli Runge-Kutta sonli hisoblash usulidan foydalanib natijalar keltirib chiqarish va baholash.

aylanish o'qiga kichik burchak og'ishiga va aylanish o'qiga ega bo'lgan statik balansirlanmagan ko'p yo'lakli ABULi rotorning nostatsionar harakatlarini Maple dasturlash paketiga tegishli Runge-Kutta sonli hisoblash usulidan foydalanib tahlil qilish va baholash.

Tadqiqot ob'ekti sifatida vertikal o'q atrofida aylanma harakat qiluvchi qo'zg'almas tayanchlarga o'rnatilgan qovushqoq-elastik valga ega bo'lgan statik balansirlanmagan ABULi rotor olingan.

Tadqiqot predmeti statik balansirlanmagan rotorlarni ABU yordamida balansirlashni matematik modellashtirish, dinamikasini tekshirish, sistemaga tegishli aniq parametrlar uchun analitik hamda sonli hisoblash usuli yordamida olingan yechimlarni aniqlash va uni baholashni tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada nazariy va analitik mexanika qonunlari va prinsiplariga asoslangan Lagranj harakat tenglamalaridan, differensial tenglamalarni xususiy yechimlarini aniqlash va chiziqsiz tenglamalar sistemasini Runge-Kutta sonli hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

statik balansirlanmagan rotorli sistemalarni avtobalansirlashda sodir bo'ladigan mexanik jarayonlarni, rotorning aylanish o'qini tebranma harakatlarida valning elastik va qovuqshqoq-elastik xususiyatlarini hisobga olib matematik model ishlab chiqilgan;

aylanish o'qiga kichik burchak og'ishi bilan joylashtirilgan statik balansirlanmagan ko'p yo'lakli ABULi rotorning harakat differensial tenglamalar sistemasi asosida valning qovushqoq-elastiklik xossalarini e'tiborga olgan holda matematik modeli ishlab chiqilgan;

aylanish o'qiga kichik burchak og'ishi bilan joylashtirilgan statik balansirlanmagan ko'p yo'lakli ABULi rotorning statsionar harakatini xususiy hollarda massa markazining koordinatalari, balansirlovchi sharchalarning halqa ichida joylashish burchaklari analitik ko'rinishda aniqlangan;

katta burchak tezlikda harakatlanuvchi statik balansirlanmagan rotorga nisbatan aylanish o'qiga ega bo'lgan ABULi sistemani nostatsionar harakatiga tegishli xususiy hollar Maple dasturlash paketidan foydalanib Runge-Kutta sonli hisoblash usuli yordamida tekshirilgan va rotor massa markazining og'ishi, balansirlovchi sharchalarnig halqa ichida joylashish burchaklari, halqa tekisligini rotor ko'ndalang kesim tekisligiga nisbatan og'ish burchagini chekli vaqt

oralig'idagi o'zgarishlarining matematik modeli ishlab chiqilib olingan natijalar baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

statik balansirlanmagan ABULi rotor harakat tenglamalari xususiy aylanish o'qiga qo'yilgan aylantiruvchi elektrodvigatel momentini hisobga olgan holda matematik modellashtirilib xususiy holda sistemaga tegishli aniq parametrlar uchun hisoblash usullarini va algoritmlarini takomillashtirish, dinamikasini baholash metodikalari ishlab chiqilgan;

rotor xususiy burchak tezligini kritik tezliklardan o'tishida aylanish o'qining og'ishini oshib ketmasligini avtobalansirlovchi sistema yordamida kerakli burchak tezliklarga erishishini amalga oshirish shartlari asoslangan va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

olingan natijalar asosida katta burchak tezlikda harakatlanuvchi statik balansirlanmagan ko'p yo'lakli ABULi rotorning parametrlarini aniqlash uchun zarur xulosalar keltirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalar differensial tenglamalar nazariyasining usullariga, nazariy va analitik mexanika qonunlariga hamda modellariga asoslangan. Sistemaga tegishli xususiy harakatlar differensial tenglamalar nazariyasiga tegishli usullar yordamida aniqlangan va harakat tenglamalar sistemasini to'liq qanoatlantiradi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalar rotorning ishchi diapazonini aniqlash, rezonans sohasidan o'tish shartlari, avtobalansirlashtirish qurilmasini takomillashtirish omillarini hamda shu orqali rotorlarni uzoq muddat ishonchli ishlashi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, katta burchak tezliklarda aylanma harakat qiluvchi statik balansirlanmagan rotorni ABU yordamida balansirlash bo'yicha olingan natijalar texnikaning turli sohalorida, jumladan gidro hamda nasos agregatlari, turbo kompressorlar, transportda, energetika, samolyotsozlikda va boshqa sohalarda rotorli mashinalar va dvigatellarni loyihalashda keng qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Rotorli sistemalar dinamikasini qo'zg'aluvchan massalar yordamida balansirlash usulini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

katta tezlikda harakatlanuvchi statik balansirlanmagan rotorli sistemalarni qo'zg'aluvchan massalar yordamida balansirlash, avtobalansirlashda sodir bo'ladigan mexanik jarayonlarni matematik modellashtirish yordamida baholash algoritmlari Toshkent shahrida joylashgan "Toshkent GESlari kaskadi Oq tepa" UK 9-gidroelektrostansiyasi gidro-nasos agregatlari, turbo kompressorlari va boshqa turdagi qurilmalarini takomillashtirishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi "O'ZBEKGIDROENERGO" aksiyadorlik jamiyatining 2023 yil 3 oktabrdagi № 02-28/2858 sonli ma'lumotnomasi). Natijada rotorning dinamikasini tekshirish, sistema konstruktiv parametrlarining turli qiymatlarida rotorning aylanish o'qini tebranma

harakatlarida valning elastik va qovushqoq-elastik xususiyatlarini inobatga olgan holda sonli tahlil etish imkoni yaratilgan.

Qo'zg'almas tayanchlarga o'rnatilgan, statik balansirlanmagan rotorlarni avtobalansirlovchi uskuna yordamida balansirlash usuli "Toshkent shahar suv ta'minoti" Bo'z-su to'yintirish inshootida joylashgan «HOWDEN-SG52A-CVC» havo haydash agregat qurilmasida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi "O'ZBEKGIDROENERGO" aksiyadorlik jamiyatining 2023 yil 3 oktabrdagi № 02-28/2858 sonli ma'lumotnomasi). Natijada burchak tezlikni nostatsionar harakatida rotor aylanish o'qining tebranish amplitudasi balansirlovchi sharchalar yordamida chegaralangan oraliqlarda o'zgarib avtobalansirlovchi uskunalı rotor, avtobalansirlovchi uskunasiz rotorli mexanizmlarga nisbatan mehnat samaradorligi 1.25 marta tejalishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika konferensiyalarida ma'ruza qilingan.

Dissertatsiya ishi to'laligicha quyidagi seminarlarda muhokamadan o'tkazilgan: O'zRFA qoshidagi M.T.O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining "Konstruksiya va inshootlarning seysmik mustahkamligi" birlashgan ilmiy seminarida (2023 yil, 18 dekabr, bayonnoma №12), (2022 yil, 18 may, bayonnoma №5) ilmiy ma'ruza; "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti "Mexanika va kompyuterli modellash" kafedrası qoshidagi "Mexanika muammolari" bo'yicha OTM Respublika ilmiy seminarida (2023 yil, 19 dekabr, bayonnoma №16) muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa fanlari doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola chop etilgan, jumladan 3 ta respublika va 4 ta xorijiy va Scopus bazasiga kiritilgan jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 98 betni tashkil etgan, 29 ta rasm, 102 nomdagi adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilab olingan. Tadqiqot ob'ekti, predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ishning yangiliklari, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan,


tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganlik holati hamda nashr etilgan ishlar, dissertatsiya ishining tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Katta burchak tezlikda harakatlanuvchi statik balansirlanmagan rotorga kichik burchak og'ishi bilan joylashtirilgan ABUli sistema dinamikasi”** deb nomlangan birinchi bobida dunyo miqyosida rotorlar dinamikasiga tegishli ilmiy tadqiqot ishlari o'rganilgan. Unda statik balansirlanmagan rotor harakatini xarakterlovchi massalar (balansirlovchi sharchalar) yordamida avtobalansirlovchi uskunalari rotor dinamikasiga tegishli tadqiqot natijalari tahlil qilingan.

Ushbu bo'limda rotor aylanish o'qining tebranma harakati, val materialining elastik va qovushqoq-elastik xossalari e'tiborga olingan holda tekshirilgan.



1-rasm. Elastik valning sxemasi



2-rasm. Val ko'ndalang kesimida geometrik va og'irlik markazlarining joylashishi

Katta burchak tezligida aylanadigan, qovushqoq-elastik valning (1-rasm) tebranma harakatida rotor valning egilishdagi harakat differensial tenglamasi quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$\begin{aligned} \tilde{E}J_0 \frac{\partial^4 x}{\partial z^4} + \rho F_0 \frac{\partial^2 x_c}{\partial t^2} &= 0, \\ \tilde{E}J_0 \frac{\partial^4 y}{\partial z^4} + \rho F_0 \frac{\partial^2 y_c}{\partial t^2} &= 0, \end{aligned} \quad (1)$$

bunda: x, y va x_c, y_c - lar qo'zg'almas koordinatalar sistemasiga nisbatan mos ravishda valning geometrik va og'irlik markazlarining koordinatalari; ρ - val materialining zichligi; F_0 - val ko'ndalang kesimining yuzasi; J_0 - val ko'ndalang kesimining inersiya momenti.

Agarda val katta tezlikda aylansa, u holda val materialida ichki ishqalanish hodisasi bilan birga, temperaturaning o'zgarishi natijasida materialda elastik-qovushqoqlik xususiyati paydo bo'ladi. Bu holda val materialidagi qovushqoq-elastiklik xususiyatini \tilde{E} Boltzmann-Volter nazariyasiga asosan Valturning integral operatori orqali ifodalash mumkin bo'ladi, ya'ni:

$$\tilde{E}(\varphi(t)) = E \left(\check{\varphi}(t) - \int_0^t \Gamma_E(t-\tau) \check{\varphi}(\tau) d\tau \right), \quad (2)$$

bunda: \tilde{E} - uzoq vaqtdagi elastiklik moduli, E - oniy elastiklik moduli; Γ_E - relaksatsiya yadrosi; $\check{\varphi}(t)$ - vaqt bo'yicha o'zgaruvchi funksiya.

Qo'zg'almas koordinatalar sistemasiga nisbatan valning geometrik va og'irlik markazlarining koordinatalari quyidagicha ifodalash mumkin (2-rasm):

$$x_c = x + s_1 \cos \theta(t), \quad y_c = y + s_1 \sin \theta(t), \quad (3)$$

bu tenglamalarda: $\theta(t)$ -valni O_1z o'qi atrofida aylanish burchagi, $s_1 = O_1C$ ekssentriklikni ifodalovchi masofa;

(3) inobatga olinsa (1) differensial tenglamalar sistemasini quyidagicha yozish mumkin:

$$\begin{aligned} \tilde{E}J_0 \frac{\partial^4 x}{\partial z^4} + \rho F_0 \frac{\partial^2 x}{\partial t^2} &= \rho F_0 s_1 (\dot{\theta}^2 \cos \theta + \ddot{\theta} \sin \theta), \\ \tilde{E}J_0 \frac{\partial^4 y}{\partial z^4} + \rho F_0 \frac{\partial^2 y}{\partial t^2} &= -\rho F_0 s_1 (\dot{\theta}^2 \sin \theta - \ddot{\theta} \cos \theta), \end{aligned} \quad (4)$$

Agarda burchak $\theta(t)$ ta o'zgarmas burchak tezlik bilan o'zgarsa, ya'ni $\theta(t) = \nu t$, u holda A.N.Krilov funksiyalari orqali algebraik hisoblashlar natijasida quyidagi

$$X(0) = 0, \quad X''(0) = 0, \quad X(\ell) = 0, \quad X''(\ell) = 0,$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi (4) tenglamaning umumiy yechimi quyidagicha yozish mumkin:

$$x(z, t) = \sum_{n=1}^{\infty} \left(BA_0 \sin\left(\frac{\pi n}{\ell} z\right) \sin(p_0 t + \phi) + \frac{Bs_1}{\rho F_0 (p_0^2 - \nu^2)} \sin\left(\frac{\pi n}{\ell} z\right) \cos(\nu t) \right), \quad (5)$$

bunda: A_0 - tebranish amplitudasi; ϕ - boshlang'ich faza harakatning boshlang'ich shartlaridan aniqlanadi; p_0 - tebranishning takroriyliigi; B - integral o'zgaruvchisi.

Yuqoridagi (1) tenglamaning yechimni qidirishda Furye usulidan foydalanib, quyidagi almashtirishlarni bajaramiz:

$$x_c = X(t) \sin \frac{\pi z}{\ell}, \quad y_c = Y(t) \sin \frac{\pi z}{\ell}, \quad s_1 = s_0 \sin \frac{\pi z}{\ell}, \quad (6)$$

Val materialining qovushqoq-elasticlik harakateristikalarini e'tiborga olish bilan birga val materialida sodir bo'ladigan ichki dissipatsiyani Reley funksiyasi orqali hisobga olsak (3) va (6) ni (1) ifodaga qo'yilib, quyidagi ikkinchi tartibli birjinsiz oddiy differensial tenglamalar sistemasi hosil bo'ladi:

$$\ddot{X} + 2\mu \dot{X} + \tilde{E}CX = \tilde{E}Cs_0 \cos \theta(t), \quad \ddot{Y} + 2\mu \dot{Y} + \tilde{E}CY = \tilde{E}Cs_0 s_0 \sin \theta(t), \quad (7)$$

bunda: $C = \frac{J_0 \pi^4}{\ell^4 \rho F_0}$; $\mu_0 = 2\mu$ - ichki dissipatsiya.

Hosil bo'lgan tenglmaga $z = x - iy$ kompleks almashtirishni kiritib, quyidagi ko'rinishdagi ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamani hosil qilamiz:

$$\ddot{z} + 2\mu \dot{z} + \tilde{E}Cz = \tilde{E}Cs_0 e^{-\theta(t)} \quad (8)$$

(8) differensial tenglamaning umumiy yechimi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$z = e^{-\mu t} (C_1 \sin(\tilde{\omega}_0 t) + C_2 \cos(\tilde{\omega}_0 t)) + \frac{\tilde{E}C e^{-i\nu t}}{\tilde{E}C - \nu^2 - 2\mu \nu i}. \quad (9)$$

Bu ifodada $\tilde{\omega}_0$ - val materialining qovushqoq-elastic bo'lgan holdagi xususiy tebranish chastota bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

$$\tilde{\omega}_0 = \sqrt[4]{(E_1 C - \mu^2)^2 + (E_2 C)^2} \left(\cos\left(\frac{1}{2} \operatorname{tg}\left(-\frac{E_2 C}{E_1 C}\right)\right) + i \sin\left(\frac{1}{2} \operatorname{tg}\left(-\frac{E_2 C}{E_1 C}\right)\right) \right).$$

$$\text{Bunda: } E_1 = E \left(1 - \int_0^{\infty} \tilde{A} e^{-\tilde{\beta}\tau} \tau^{\tilde{\alpha}-1} \cos(\omega_0 \cdot \tau) d\tau \right), \quad E_2 = E \int_0^{\infty} \tilde{A} e^{-\tilde{\beta}\tau} \tau^{\tilde{\alpha}-1} \cos(\omega_0 \cdot \tau) d\tau,$$

$\tilde{A}, \tilde{\alpha}, \tilde{\beta}$ - relaksatsiya yadrosiga tegishli o'zgarmas koeffitsiyentlar.


Hosil bo'lgan (7) differensial tenglamaning yechimini val materialini elastik va qovushqoq–elastik bo'lgan hollarida sistemaga tegishli aniq qiymatlarida xususiy tebranishlar chastotasi, tebranish amplitudasini va tashqi chastotaga bog'liq o'zgarishlarini $z(0)=0, \dot{z}(0)=0$ boshlang'ich shartlarda tekshiramiz. Hisoblash ishlarini bajarishda sistemaga tegishli parametrlar quyidagi kattaliklarda olingan: val uzunligi hamda ko'ndalang kesim radiusi mos ravishda $\ell = 2m, r = 0.01m$; elastiklik moduli $E = 2 \cdot 10^{10} kg/m^2$; val materialining zichligi va ichki dissipatsiyasi mos ravishda $\rho = 7800 kg/m^3, \mu = 0.001 Ns/m$; relaksatsiya yadrosiga tegishli o'zgarmas koeffitsiyentlar $\tilde{A} = 0.08, \tilde{\alpha} = 0.15, \tilde{\beta} = 0.05$; burchakni vaqt bo'yicha o'zgarishi $\theta(t) = 20t$ deb olingan.

Val materiali elastik bo'lgan holdagi xususiy tebranish chastotasi:

$$\omega_0 = \sqrt{EC - \mu^2} = 20.22s^{-1}$$


Val materialining qovushqoq-elastik bo'lgan holdagi xususiy tebranish chastotasi:

$$\text{Re}(\tilde{\omega}_0) = 19.9s^{-1}, \text{Im}(\tilde{\omega}_0) = 0.07s^{-1},$$



a) $E = E[1 - \Gamma_E^c(\omega_0) - i\Gamma_E^s(\omega_0)]$; b) $\tilde{E} = E$;

3-rasm. Amplitudani vaqtga bog'liq o'zgarishi



a) $\tilde{E} = E[1 - \Gamma_E^c(\omega_0) - i\Gamma_E^s(\omega_0)]$; b) $\tilde{E} = E$;

4-rasm. Valning amplituda-chastotali xarakteristikasi

Olingan natijalarni tahlil qilsak 3-rasmdan ko'rish mumkinki, val elastik bo'lganida maksimal tebranish amplitudasi $A = 0.002m$ tashkil qilib, qovushqoq-elastiklik bo'lganda esa $A = 0.0018m$ qiymatlarga erishib, vaqt o'tishi bilan so'nuvchi tebranma harakat qiladi. Valning qovushqoq-elastiklik xossasi katta burchak tezlikda aylanishida e'tiborga olinishi hosil bo'ladigan maksimal tebranish amplitudasini 9%-11% kamayishiga olib keladi.


Agar valning barqaror majburiy tebranishi natijalarini (ya'ni amplituda-chastotali xarakteristikasini) tahlil qilsak (4-rasm), qovushqoq-elastiklikni e'tiborga olsak, bu holda ham valning maksimal tebranish amplitudasi kamayib tebranma harakat fazasining surilishini kuzatish mumkin.

Kichik burchak og‘ishiga ega bo‘lgan ko‘p yo‘lakli statik balansirlanmagan avtobalansirlovchi uskunali rotorning matematik modeli.


Model ko‘rishda klassik Djeffkott modeli asos qilib olingan bo‘lib, uning harakatini tekshirishda avtobalansirlovchi uskunaning o‘rnatilishidagi nafaqat eksentrikligi hamda burchak og‘ishi ham hisobga olingan. Bunda ABUdagi balansirlovchi sharchalarning yo‘laklari (trayektoriyalari) aylanadan iborat deb qaralgan. Harakat tenglamalar sistemasi umumlashgan koordinatalarda Lagranj tenglamalari asosida tuzilgan, xususiy harakatlarni aniqlashda qulay hisoblanadigan rotor bilan bog‘langan koordinata sistemasidan foydalanilgan. Statsionar harakatlarning mavjud bo‘lishining zaruriy shartlari analitik ko‘rinishda aniqlangan.

ABUda ikkita harakatlanuvchi sharchalar mavjud bo‘lgan holda sistema dinamikasi baholanib, xususiy harakatning turlicha (yarim va to‘liq balansirlangan) hollarini analitik yechimlar olingan va tahlil qilingan.

Tenglamalar sistemasiga tegishli parametrlarning aniq qiymatlarida sonli yechimlarni aniqlashda Maple dasturlash paketiga tegishli sonli usuldan foydalanilgan. Rotorning turli burchak tezliklardagi harakatlarida rotor massalar markazining tebranish amplitudasi va balansirlovchi sharchalarni halqa ichidagi joylashish holatlari aniqlangan va tahlil qilingan. Qo‘zg‘almas tayanchlarga o‘rnatilgan elastik yoki qovushqoq-elastik valga ega bo‘lgan absolyut qattiq statik muvozanatlashmagan rotorni vertikal o‘q atrofida ABUli sistemaning harakati tekshirilgan (5-rasm). Rotorda hosil bo‘ladigan disbalansni bartaraf etish uchun, ABU ichiga n ta balansirlovchi sharchalar joylashtirilgan. Bunda halqalar gorizonttal o‘q atrofida kichik burchakka og‘gan bo‘lib, halqaning gorizonttal o‘qi bilan OO_1 yo‘nalishi bilan β burchak hosil qiladi. Sistema holatini aniqlash uchun $Oxyz$ qo‘zg‘almas, rotor bilan birga harakatlanadigan $O\xi\eta\zeta$ va halqa markaziga esa $O_1x_1y_1z_1$ qo‘zg‘aluvchi dekart koordinatalar sistemalari kiritilgan (6-rasm).



5-rasm. ABUli rotorning konstruktiv sxemasi



6 –rasm. ABUli rotorga koordinatalar systemsini

Sistemaga qo‘yilgan bog‘lanishlar geometrik bog‘lanishlardan iborat bo‘lganligi uchun, harakat tenglamalarini tuzishda Lagranj tenglamalaridan foydalanamiz:

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{\partial T}{\partial \dot{q}_\chi} \right) - \frac{\partial T}{\partial q_\chi} = - \frac{\partial \Pi}{\partial q_\chi} - \frac{\partial F}{\partial \dot{q}_\chi} + Q_\chi, \quad (\chi = 1..n) \quad (10)$$

bu yerda q_χ - umumlashgan koodinatalar, Q_χ - umumlashgan kuchlar, T , Π – mos ravishda sistemaning kinetik va potensial energiyasi, F - qarshilik kuchlarining dissipativ Reley funksiyasi.

Rotor va ABU massa markazi va sharchalarni koodinatalari uchun quyidagi munosabatlar o‘rinli:

$$\begin{aligned} x_G &= x_c + s_1 \cos \theta, & y_G &= y_c + s_1 \sin \theta, & x_{o_1} &= x_c + s_2 \cos(\theta + \gamma), & y_{o_1} &= y_c + s_2 \sin(\theta + \gamma), \\ x_{ji} &= x_c + s_2 \cos(\theta + \gamma) + r_j (\cos \varphi_{ji} \cos(\beta + \theta) - \sin \varphi_{ji} \cos \alpha \sin(\beta + \theta)), \\ y_{ji} &= y_c + s_2 \sin(\theta + \gamma) + r_j (\sin \varphi_{ji} \cos(\beta + \theta) + \cos \varphi_{ji} \cos \alpha \sin(\beta + \theta)), \\ z_{ji} &= r_j \sin \varphi_{ji} \sin \alpha. \end{aligned}$$

Bunda: s_1, s_2 – rotor massa markazi va balansirlash uskunasi eksentrikligi, γ – CO_1 va CG yo‘nalishlari orasidagi burchak.

Kiritilgan umumlashgan koodinatalarga asosan, rotorli sistemaning to‘liq kinetik energiyasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned} T &= \frac{1}{2} m_r (x_G + y_G)^2 + \frac{1}{2} J_G \dot{\theta}^2 + \frac{1}{2} m_{bs} (x_{o_1} + y_{o_1})^2 + \frac{1}{2} (J_{x_2} \dot{\theta}^2 \sin^2 \alpha + \\ &+ J_{z_2} \dot{\theta}^2 \cos^2 \alpha) + \frac{1}{2} \sum_{j=1}^s \sum_{i=1}^n m_{ji} (x_{ji} + y_{ji} + z_{ji})^2. \end{aligned} \quad (11)$$

bu yerda m_r, m_{bs}, m_i - mos ravishda rotor, ABU va sharchalarning massalari, J_G, J_{x_2}, J_{z_2} - rotor va ABUning bosh o‘qlarga nisbatan inersiya momentlari.

Val tomonidan rotorga ta’sir qilayotgan keltirilgan elastiklik kuchi potensial energiyasi, sistemaga ta’sir qilayotgan tezliklarga proporsional qarshilik kuchlarining Reley dissipatsiya funksiyasi, keltirilgan bikrlilik koeffitsiyentini (aylanish valining ikkala tayanchi mahkam qisilgan deb qaralsa) mos ravishda quyidagicha aniqlanadi:

$$\Pi = \frac{1}{2} \tilde{k} (x^2 + y^2), \quad F = \frac{1}{2} c (\dot{x}^2 + \dot{y}^2) + \frac{1}{2} c_\theta \dot{\theta}^2 + \frac{1}{2} c_\varphi \sum_{i=1}^n \dot{\varphi}_i^2, \quad \tilde{k} = \frac{3 \ell \tilde{E} J_0}{\ell_1^2 (\ell - \ell_1)^2}, \quad (12)$$

bu yerda \tilde{k} - valning elastiklik yoki qovushqoq elastiklik xossalarini o‘zida aks ettiruvchi keltirilgan bikrlilik koeffitsienti, c, c_θ, c_φ - proporsionallik koeffitsientlari, ℓ - valning uzunligi, ℓ_1 - tayanchdan val rotorni kesib o‘tadigan nuqtasigacha bo‘lgan masofa.

Umumiy holda val materialidagi qovushqoq-elastiklik xususiyati e’tiborga olinadigan bo‘lsa, elastiklik moduli \tilde{E} Bolsman-Valtera nazariyasiga asosan Volterning integral operatori orqali ifodalanadi, ya’ni:

$$\tilde{E}[\tilde{\varphi}(t)] = E \left[\tilde{\varphi}(t) - \int_{-\infty}^t \Gamma_E(t - \tau) \tilde{\varphi}(\tau) d\tau \right], \quad (12.a)$$

Valning qovushqoq-elastiklik xususiyati inobatga olinadigan \tilde{E} uzoq vaqtdagi elastiklik moduli (12.a) bo‘lib, E oniy modul hisoblanadi.

Sistemaning harakat differensial tenglamalarini tuzish uchun (11) ifodani vaqt va umumlashgan koordinatalar bo‘yicha differensiallab, (12) bilan birgalikda (10) tenglamalar sistemasiga olib borib qo‘ysak, umumlashgan koordinatalarda chiziqsiz differensial tenglamalar sistemasi hosil bo‘ladi.

Odatda, rotorli sistemalarni tekshirishda rotor bilan bog‘langan koordinata sistemasidan foydalanish qulaylik tug‘diradi. Bunga ko‘ra, harakat tenglamalarida

$$z = x + iy = \zeta e^{i\theta}, \quad \dot{z} = (\dot{\zeta} + \zeta \dot{\theta} i) e^{i\theta}, \quad \ddot{z} = (\ddot{\zeta} + 2\dot{\zeta} \dot{\theta} i - \zeta \dot{\theta}^2 + \zeta \ddot{\theta} i) e^{i\theta}, \quad (13)$$

yangi o‘zgaruvchilarga o‘tamiz.

Umumiy holda harakat tenglamalar sistemasini integrallashning analitik usuli mavjud emas.

ABUli rotorning statsionar harakatini quyidagi ko‘rinishda qidiramiz:

$$\dot{\theta} = \nu, \quad \zeta = A e^{i\phi_0}, \quad \varphi_i = \varphi_{0i} = const, \quad A = const, \quad \phi_0 = const, \quad \alpha = \alpha_0 = const, \quad (14)$$

bunda A -aylanma harakat amplitudasi, ϕ_0 -siljish fazasi.

Agar (13) va (14) ifodalarni harakatning chiziqsiz tenglamalariga qo‘ysak, quyidagi ko‘rinishdagi statsionar harakatning zaruriy shartlari kelib chiqadi:

$$(\tilde{k} - M \nu^2 + c \nu i) A e^{i\phi_0} = \nu^2 (m_r s_1 + M_1 e^{i\gamma} + \sum_{j=1}^s \sum_{i=1}^n m_{ji} r_j (\sin \varphi_{oji} - i \cos \varphi_{oji} \cos \alpha_0)) e^{i(\beta+\gamma)}, \quad (15)$$

$$\begin{aligned} & \cos \varphi_{0ji} \operatorname{Re}(-\nu^2 A e^{i\phi_0} e^{-i\delta}) + \sin \varphi_{0ji} \cos \alpha_0 \operatorname{Im}(-\nu^2 A e^{i\phi_0} e^{-i\delta}) + (r \sin \varphi_{0ji} \cos \varphi_{0ji} \sin^2 \alpha + \\ & + s_2 (\cos \varphi_{0ji} \cos \beta - \sin \varphi_{0ji} \cos \alpha_0 \sin \beta)) \nu^2 + g \sin \varphi_{0ji} \sin \alpha_0 = 0. (i=1,2,\dots,n) \end{aligned} \quad (16)$$

Agar α burchak juda kichik deb qaralsa, yuqoridagi (15) va (16) tenglamalar sistemasi quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\left(\frac{\tilde{k}}{\nu^2} - M\right) \xi_0 - \frac{c}{\nu} \eta_0 = m_r s_1 + M_1 \cos \gamma + \sum_{j=1}^s \sum_{i=1}^n m_{ji} r_j \sin(\varphi_{0ji} + \Delta), \quad (17)$$

$$\left(\frac{\tilde{k}}{\nu^2} - M\right) \eta_0 + \frac{c}{\nu} \xi_0 = M_1 \sin \gamma - \sum_{j=1}^s \sum_{i=1}^n m_{ji} r_j \cos(\varphi_{0ji} + \Delta), \quad (18)$$

$$\xi_0 \cos(\varphi_{0ji} + \Delta) + \eta_0 \sin(\varphi_{0ji} + \Delta) = -s_2 \cos(\varphi_{0ji} + \beta_0) - \hat{g} \sin \varphi_{0ji}, \quad (19)$$

bu yerda quyidagi belgilashlar kiritilgan:

$$\Delta = \beta + \gamma, \quad \hat{g} = g \alpha_0 \nu^{-2}, \quad M = m_r + m_{bs} + \sum_{j=1}^s \sum_{i=1}^n m_{ji}, \quad M_1 = m_{bs} s_2 + \sum_{j=1}^s \sum_{i=1}^n m_{ji} s_2.$$

Agar ABU bitta yo‘lakli va unda massalari bir xil bo‘lgan ikkita balansirlovchi sharchalar bor deb qaralsa, (19) tenglamadan algebraik amallar bajarish natijasida noma’lumlar nisbatan

$$\sin(\varphi_{01} - \varphi_{02})(\xi_0 - \hat{g} \sin \Delta + s_2 \cos \gamma) = 0, \quad (20)$$

$$\sin(\varphi_{01} - \varphi_{02})(\eta_0 + \hat{g} \cos \Delta + s_2 \sin \gamma) = 0, \quad (21)$$

tenglamalarni hosil bo‘ladi.

Birinchi holda agar $\sin(\varphi_{01} - \varphi_{02}) \neq 0$ shart bajarilsa, (20) va (21) tenglamalar sistemasidan ξ_0 va η_0 ning qiymatlari uchun quyidagi munosabatlar o‘rinli bo‘ladi:

$$\xi_0 = \hat{g} \sin \Delta - s_2 \cos \gamma, \quad (22)$$

$$\eta_0 = -\hat{g} \cos \Delta - s_2 \sin \gamma. \quad (23)$$

Ikkinchi holda balansirlovchi sharchalarning halqa ichida o‘zaro joylashish holatini aniqlovchi $\sin(\varphi_{01} - \varphi_{02}) = 0$ yoki $\varphi_{01} = \varphi_{02} + \pi k$ ko‘rinishdagi munosabat kelib

chiqadi, ya'ni sharchalarning halqa ichida birgalikda yoki o'zaro qarama-qarshi joylashishi kelib chiqadi (7a,b –rasm).



7-rasm. (a) Sharchalarni halqa ichida o'zaro birgalikda va (b) qarama-qarshi joylashishi

Balansirlovchi sharchalarning halqa ichida joylashish holatini aniqlovchi noma'lum burchaklar φ_{01} va φ_{02} quyidagi formulalardan aniqlanadi:

$$\varphi_{01} = \arctg \frac{\psi_1}{\psi_2} \pm \arccos \left(\pm \sqrt{\frac{\psi_1^2 + \psi_2^2}{4}} \right); \varphi_{02} = \arctg \frac{\psi_1}{\psi_2} \mp \arccos \left(\pm \sqrt{\frac{\psi_1^2 + \psi_2^2}{4}} \right), \quad (24)$$

bunda

$$\begin{aligned} \psi_1 &= \frac{1}{mr} \left(\left(\frac{\tilde{k}}{v^2} - M_0 \right) (\bar{g} \sin \gamma - s_2 \cos(\gamma - \beta)) + \frac{c}{v} (\bar{g} \cos \gamma + \right. \\ &\quad \left. + s_2 \sin(\gamma - \beta)) - m_{bs} s_2 \cos \beta - M_1 \cos(\gamma - \beta) \right), \\ \psi_2 &= \cos \varphi_{01} + \cos \varphi_{02} = \frac{1}{mr} \left(\left(\frac{\tilde{k}}{v^2} - M_0 \right) (\bar{g} \cos \gamma - s_2 \sin(\gamma - \beta)) + \right. \\ &\quad \left. + \frac{c}{v} (\bar{g} \sin \gamma - s_2 \cos(\gamma - \beta)) - m_{bs} s_2 \sin \beta - M_1 \sin(\gamma - \beta) \right). \end{aligned}$$

Keyingi xususiy holda to'liq balansirlangan $\xi_0 = 0, \eta_0 = 0$ stasionar harakatni mavjudlik shartlari tekshirilgan. Bu holda (15) va (16) tenglamalar sistemasidan:

$$\sum_{j=1}^s \sum_{i=1}^n m_i r \sin(\varphi_{oi} + \beta + \gamma) = -m_r s_1 - M_1 \cos \gamma, \quad (25)$$

$$\sum_{j=1}^s \sum_{i=1}^n m_i r \cos(\varphi_{oi} + \beta + \gamma) = M_1 \sin \gamma, \quad (26)$$

$$s_2 (\cos \varphi_{oi} \cos \beta - \sin \varphi_{oi} \sin \beta) v^2 + g \sin \varphi_{oi} \alpha_0 = 0. \quad (27)$$

Agar bitta yo'lakda teng massali ikkita balansirlovchi sharchalar joylashgan bo'lsa, (25)-(27) tenglamalardan quyidagi munosabatlar kelib chiqadi:

$$mr (\sin(\varphi_{o1} + \beta + \gamma) + \sin(\varphi_{o2} + \beta + \gamma)) = -m_r s_1 - M_1 \cos \gamma, \quad (28)$$

$$mr (\cos(\varphi_{o1} + \beta + \gamma) + \cos(\varphi_{o2} + \beta + \gamma)) = M_1 \sin \gamma, \quad (29)$$

$$s_2 \cos \beta \sin(\varphi_{o1} - \varphi_{o2}) = 0, \quad (30)$$

(30) tenglamadagi $\sin(\varphi_{o1} - \varphi_{o2}) = 0, s_2 = 0$ shartlar yuqoridan olingan (yarim balansirlangan) hol bilan ustma-ust tushadi.

Umumiy holda (25)-(27) tenglamalar sistemasi bajarilmaydi. Faqatgina xususiy holda, ya'ni $s_2 = 0$ va $\cos \beta = 0$ bo'lganida o'rinli bo'ladi.

Natijada $Ae^{i\phi_0} = 0$ yoki $\xi_0 = 0, \eta_0 = 0$ shartlar o‘rinli bo‘ladigan to‘liq balansirlangan harakat umumiy holda mavjud emasligi kelib chiqadi.


Yuqorida ta’kidlanganidek umumiy holda sistema harakat differensial tenglamalarini analitik yechimini aniqlash qiyin masala hisoblanadi. Shuning uchun, ikkinchi tartibli chiziqsiz harakat differensial tenglamalar sistemasini sonli natijalarini olishda to‘xtalamiz.

Bunda rotor va ABUga tegishli parametrlarning qiymatlari quyidagicha olingan: $s_1 = s_2 = 50mkm, m_r = 8.91kg, m_{br} = 1.5kg, m_1 = m_2 = 3.6g$, halqa radiusi $r = 20sm, c = c_\theta = 0.001Ns/m$, valning keltirilgan biklik koeffitsienti $\tilde{k} = 2922676 N/m$ bo‘lib, $\alpha = \pi/20rad, \beta = \pi/6rad$. Relaksatsiya yadrosiga tegishli o‘zgarish koeffitsientlar $\tilde{A} = 0, \tilde{\alpha} = 0.15, \tilde{\beta} = 0.05$, deb olinib, rotorni xususiy aylanish o‘qi atrofida aylanish burchagining vaqt bo‘yicha o‘zgarish esa $\theta = 572,83$ ko‘rinishida berilgan.

Boshlang‘ich shartlar:

$$x(0) = 0, y(0) = 0, \varphi_{01}(0) = 0, \varphi_{02}(0) = \frac{-\pi}{2}, \dot{x}(0) = 0, \dot{y}(0) = 0, \dot{\varphi}_{01}(0) = 0, \dot{\varphi}_{02}(0) = 0.$$


Sonli natijalarga ko‘ra, rotor massa markazi va sharchalarni halqaga nisbatan harakati 8-rasmda keltirilgan.



8-rasm. (a) Amplitudani va (b) sharchalarning halqa ichidagi holatining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi

8a-rasmdagi grafikdan ko‘rinib turibdiki, rotorning burchak tezligi kritik burchak tezlikdan kichik qiymatlarida bo‘lsa, rotor o‘qi pretsession harakatda bo‘ladi va bu harakatda vaqt o‘tishi bilan rotor massa markazi amplitudasi $A = 6mkm$ qiymat atrofida o‘zgaradi. O‘z navbatida vaqt o‘tishi bilan sharchalardan biri halqaga nisbatan $\varphi_{01}(0) = \pi$ va ikkinchi sharcha esa $\varphi_{02}(0) = -\pi$ burchakli holatga intiladi (8b-rasm). Keyingi holda sistemaning ayrim parametrlarini o‘zgartirib, ya’ni $\tilde{k} = 2 \cdot 10^6 N/m, \beta = \pi/3rad, \theta = 750t$ rotor va ABUga tegishli parametrlarni va boshlang‘ich qiymatlarni yuqoridagidek olib, tenglamalar sistemasining sonli natijalariga mos keluvchi qiymatlari 9-rasmda ko‘rsatilgan.

9a-rasmdagi natijalardan shuni hulosa qilish mumkinki, rotor massa markazi amplitudasi vaqt o‘zgarishi bilan $A = 5mkm$ qiymat atrofida davriy o‘zgaradi, ya’ni rotor o‘qi pretsessiya harakatida bo‘ladi.



9–rasm. (a) Amplituda va (b) sharchalarning halqa ichidagi holatini vaqt bo‘yicha o‘zgarishi

ABUning halqasida sharchalardan biri $\varphi_{01}(0) = -1.5 \text{ rad}$ va ikkinchisi esa $\varphi_{02}(0) = -1.5 \text{ rad}$ burchakli holatga intiladi (9b-rasm). Bu esa sharchalarni harakat davomida halqa ichida birgalikda joylashuvini anglatadi.


Sistemani sonli yechish orqali olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, balansirlovchi sharchalarning halqa ichida o‘zaro joylashish holatlari yuqorida olingan analitik yechim bilan ustma- ust tushadi.

